


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyunida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 11 038,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,9 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	I. YaHM	9 146,6	11 038,6	104,9

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 896,0	10 646,5	104,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	250,6	392,1	104,8
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 896,0	10 646,5	104,9
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 575,2	4 287,1	100,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 767,8	2 094,4	108,0
	sanoat	1 168,1	1 370,3	109,5

		Mird. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	599,7	724,1	105,1
	Xizmatlar	3 553,0	4 265,0	107,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	523,9	639,7	107,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	516,4	669,3	116,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 512,7	2 956,0	106,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 813,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari

2020- yil

4 887,6

0,5

2021- yil

5 813,5

3,4



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 40,3 % ni, sanoat tarmog'i 12,9 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 40,0 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		2020- yil	2021- yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	96,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	3,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,2	40,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	19,8	19,7
	sanoat	13,1	12,9
	qurilish	6,7	6,8
Xizmatlar		40,0	40,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	6,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	6,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	28,3	27,7




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil



2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 100,4 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,3 %), sanoatda – 109,5 % (12,9 %), qurilishda – 105,1 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (40,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,7 % (6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,6 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,0 % dan (27,7 %) iborat bo'ldi.




YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – salbiy 0,3) f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,02 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 119,4 % va qurilishda – 114,9 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 72,2 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 72,3 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: E.Axmedov
Tel.: (62) 227-78-65**